

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrası professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlát Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,
O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlantirish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islom moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылкап Ермакбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmni rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li, magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li, tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob, mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи, базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognozi	161
Xatamov Nurbek Ochildiyevich, erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi, doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза, PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalb qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich, dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna, mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova, PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich, doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li, tayansh doktorant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboyevich, dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна, независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich, PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich, mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich, mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна, докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutsional investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich, dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li, PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li, tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович, PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li, PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich, mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Влияние инвестиционной политики на инновационную деятельность в Республике Корея	277
Алимова София Розумбаевна , независимый исследователь	
Hududlarda oliy ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'nalishlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potentsialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktorant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Difuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Формирование кредитного портфеля современного коммерческого банка.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , ассистент кафедры	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'urtalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganov Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budjetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mamatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalb qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildivich , erkin tadqiqotchi	
Международный опыт развития регионов путем привлечения инвестиций через рынок капитала	380
Дадаханова Саида Махаммаджон кизи , докторант	
Искусственный интеллект как инструмент управления человеческими ресурсами	386
Хайдарова Малика Шакирджановна , преподаватель кафедры	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiyev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING HOLATI VA INNOVATSION RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAHLILI

Berdiyev Anvar Abduraxmonovich

Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish va servis sohaslarining bugungi holati, tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari yoritilgan. Viloyatning xizmatlar sohasida kichik biznes subyektlarining o'zni hamda hududlar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari statistik usullari asosida tahliliy o'rganilgan. Shuningdek, viloyatda xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, servis, innovatsion faoliyat, iqtisodiy ko'rsatkichlar, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье описано современное состояние, структура и социально-экономические показатели сферы услуг и сферы услуг Самаркандской области. Роль субъектов малого предпринимательства в сфере услуг региона и основные показатели сферы услуг по регионам изучены аналитически на основе статистических методов. Также разработаны конкретные направления дальнейшего развития сферы услуг в регионе.

Ключевые слова: сфера услуг, сервис, инновационная деятельность, экономические показатели, инновации, экономическое развитие.

Abstract: This article describes the current state, structure and socio-economic indicators of the service and service industries in Samarkand region. The role of small business entities in the service sector of the region and the main indicators of the service sector by region were studied analytically on the basis of statistical methods. Also, specific directions for further development of the service sector in the region have been developed.

Key words: service sector, service, innovative activity, economic indicators, innovation, economic development.

KIRISH

Iqtisodiyotda innovatsion boshqaruv uslublari va texnologiyalarini joriy etish orqali xizmat ko'rsatish sohasini mavjud to'plangan tajribalar vositasida rivojlantirish samaradorligini oshirish muayyan darajadagi ilmiy yondashuvni talab etadi. Xizmat ko'rsatish sohasini barqaror rivojlantirish ham xizmat ko'rsatish sohasining alohida tarmoqlari ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash ham alohida xizmat turlarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda butun dunyo mamlakatlarida faqat innovatsiyalarni joriy etish asosida raqobatlash mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish mumkin. Shunga ko'ra, aynan innovatsiyalar raqobatni ta'minlashning samarali vositasi sifatida yangi xizmatlar yaratuvchisi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, zamonaviy xizmat ko'rsatish korxonasi bozordagi chuqur raqobat sharoitida o'z samaradorligini oshirish uchun har xil turdagi innovatsiyalardan doimiy ravishda samarali foydalanadi. Bu, birinchi navbatda, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlarga taalluqlidir. Binobarin, mamlakatimiz iqtisodiyotini samarali rivojlantirishga xizmat ko'rsatish sohasi munosib hissa qo'shmoqda.

Umuman olganda, xizmat ko'rsatish sohasi muayyan viloyat, shahar, tuman va mamlakat iqtisodiyotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Eng avvalo, xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotlarning innovatsion rivojlanishini belgilovchi quyidagi yo'nalishlardagi roli o'sib bormoqda: ish bilan bandlik; xizmatlar hajmi va turlarini ko'paytirish; yangi korxona va tashkilotlar soni; iste'molchilarning xizmatlarga bo'lgan talabi.

Bundan tashqari, jahon miqyosida xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion rivojlanishning hal qiluvchi omillari ilmiy-texnikaviy taraqqiyot hamda ishlab chiqarishni tarkibiy va texnologik qayta qurish hisoblanadi. Shu boisdan ham mazkur tadqiqot mavzusi dolzarb hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy rivojlanishning postindustrial bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining yalpi ichki mahsulotdagi hissasini ortib borishi bilan o'zaro aloqadorlikda zamonaviy xizmatlar turlarini kengayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin ^[1]. Servis iqtisodiyotida ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ning muhim omili kognitiv omillar va axborotlar hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda xizmatlar bozorida taqdim etiladigan xizmatlar shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga, ya'ni iste'molchilarga taqdim etiladigan xizmatlar, tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan xizmatlar hamda bir vaqtda ham iste'molchilarga, ham tadbirkorlik subyektlariga taqdim etiladigan xizmatlarga tasniflanadi ^[2].

G. Pisano kompaniyalar va firmalarda innovatsion strategiyalar va innovatsion faoliyatni boshqarish muammolari, innovatsion loyihalarni moliyalashtirishning ustuvor yo'nalishlarini tadqiq etadi. U mazkur yo'nalishning funksional vositalarni shakllantirishni taklif etadi, ya'ni: "moliyaviy resurslarni taqsimlashning tashkiliy tarkibi va bajarilish tartibi, jarayonlar, innovatsion strategiyalar o'rtasida muvofiqlik va o'zaro aloqadorlikni ta'minlash; barqaror raqobat ustunligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompaniyalarning aniq maqsadlarining shakllanishi; bahoni shakllantirish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish; turli ko'rinishdagi innovatsiyalarni tanlash va realizatsiya qilishning parallel bajarilish tartibini joriy qilish; turli xil innovatsion strategiyalar o'rtasida balansni topish" ^[3].

R. Foster va S. Kaplanlarning yondashuviga ko'ra, innovatsion faoliyatning asosiy muammosi – "innovatsiyalarni olishning muqobil yo'llari hisobi va strategik rejalashtirishga yondashuv o'zgarishini hisobga olgan holda hal etishni taklif etib, tashqi muhit shart-sharoitiga bog'liqligi" hisoblanadi ^[4].

V. P. Baranchev, N. P. Maslennikova, V. M. Mishinaning fikricha, innovatsion faoliyatni boshqarishning xususiyatlari "bitta joyga to'plangan yuqori malakali mutaxassislarning oldingi bilimiga asoslangan holda yuzaga keladigan innovatsiyalar va innovatsion mahsulotlarni hayotiylik davri boshqarish obyekti bo'lib hisoblanadi" ^[5].

Fan sig'imi yuqori xizmat ko'rsatish tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlari tadqiqotiga ko'plab asarlar bag'ishlangan. Ammo ushbu tadqiqotlarda fan sig'imi yuqori xizmat ko'rsatish tarmoqlarini identifikatsiyalash, ya'ni bir xillashirishni nazarda tutuvchi yagona metodologiya yaratilmagan. Bunda fan sig'imi yuqori tarmoqlarga tegishli mezonlarning asosiy yo'nalishlarini aniqlashni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotni amalga oshirishda rasmiy statistik ma'lumotlar, statistik kuzatish, taqqoslama tahlil, sintez, mantiqiy fikrlash statistik jadval va grafiklardan, shuningdek statistik va solishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan. Statistik tahlil uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi hamda Samarqand viloyati Statistika boshqarmasining rasmiy statistik ma'lumotlari olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samarqand viloyatining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahliliga e'tibor qilsak, viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi (27039,0 mlrd. so'm) 2017-yilda o'tgan yilga nisbatan 101,5%ga o'sgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich (53749,9 mlrd. so'm) 2021-yilda o'tgan davrga nisbatan 108,8%ni tashkil qilgan. Hududda yalpi qo'shilgan qiymat hajmi o'tgan yilga nisbatan 2017-yilda mos ravishda 102,2% va 2021-yilda 108,8 %ga o'sgan. Sanoat mahsuloti (qurilishni qo'shgan holda) hajmi 2017-yilda o'tgan yilga nisbatan 100,4%ni, 2021-yilda esa 112,0 %ni tashkil etgan. Viloyatda xizmat ko'rsatish hajmi (2017-yil – 105,0%, 2021-yil – 112,5%) sanoat va qishloq xo'jaligiga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda o'sgan. Xususan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 2021-yilda 109,9%ga oshgan. Respublikamizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, raqamli xizmatlar ko'rsatish va raqamli texnologiyalarga asoslangan faoliyatning kengayib borishi tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari hajmini jadal sur'atlarda o'sishi (2021-yilda 124,7%)ni ta'minlagan. Ayniqsa, aloqa va axborot xizmatlari sohasi kengayib, unda yaratilgan yalpi mahsulot hajmi oshib bormoqda (1-jadval).

1-jadval: Samarqand viloyati rivojlanishining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari¹

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
1.	YaHM	mlrd. so'm	27039,0	32863,7	39050,5	43386,6	53749,9
		O'tgan yilga nisbatan, %	101,5	100,7	105,6	102,4	108,8
2.	Yalpi qo'shilgan qiymat	mlrd. so'm	17739,9	30659,5	36479,7	42478,3	52640,7
		O'tgan yilga nisbatan, %	102,8	101,3	104,0	102,4	108,8

1 Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.



3.	Tovarlar va eksport-import operatsiyalariga sof soliqlar	mln. doll	393,5	1620,5	1114,2	908,3	1109,2
		O'tgan yilga nisbatan, %	102,2	147,1	105,9	102,5	109,5
4.	Sanoat mahsuloti (qurilishni qo'shgan holda)	mlrd. so'm	4386,3	6264,2	7604,5	8 779,7	10927,0
		O'tgan yilga nisbatan, %	100,4	112,7	108,0	104,4	112,0
5.	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	mlrd. so'm	5772,6	15350,5	16 925,5	19 452,5	23622,4
		O'tgan yilga nisbatan, %	101,4	94,4	102,2	103,1	104,6
6.	Jami xizmatlar, shundan:	mlrd. so'm	7581,0	8968,0	11393,7	14352,3	18091,3
		O'tgan yilga nisbatan, %	105,0	104,1	104,4	102,6	112,5
10.	Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	mlrd. so'm	1661,2	1987,5	2430,5	2720,2	3355,7
		O'tgan yilga nisbatan, %	102,7	103,4	104,1	101,4	109,9
11.	Tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	mlrd. so'm	1801,6	2118,1	2348,7	2504,2	3384,8
		O'tgan yilga nisbatan, %	105,3	107,0	103,9	100,3	124,7
12.	Boshqa xizmatlar	mlrd. so'm	4118,2	4862,1	6676,2	9127,9	11350,8
		O'tgan yilga nisbatan, %	105,7	103,0	104,6	100,0	110,0

Shuni ta'kidlash kerakki, xizmat ko'rsatish sohasi tarmoqlarining rivojlanishining sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan o'ziga xos jihati, sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi muntazam o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa, xizmat ko'rsatishda esa uning ba'zi tarmoqlarida vaqt o'tib borishi bilan mehnat unumdorligi ham pasayish tendensiyasiga ega bo'ladi.

Viloyatda 2017–2021-yillarda eng yuqori o'sish sur'atlariga ega soha va tarmoqlar sifatida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (11,5-marta), moliyaviy xizmatlar (4,0-marta), sog'liqni saqlash xizmatlari (3,5-marta), ta'lim xizmatlari (2,9-marta), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,8-marta), shaxsiy xizmatlar (2,3-marta) hissasiga to'g'ri kelgan (2-jadval).

2-jadval: Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish va servis sohalarining tarkibi², jamiga nisbatan foizda

Xizmat turlari	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.
Jami – xizmatlar	100,0	100,0	100,0	100,0
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,2	5,0	4,9	4,5
Moliyaviy xizmatlar	10,0	12,8	14,5	14,0
Transport xizmatlari	27,5	25,7	24,3	25,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,7	3,2	3,2	2,9
Savdo xizmatlari	30,5	29,0	29,3	27,6
Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	2,8	3,1	2,3	2,4
Ta'lim xizmatlari	4,4	4,8	5,1	5,4
Sog'liqni saqlash xizmatlari	1,4	1,5	1,6	2,1
Ijara va prokat xizmatlari	3,6	3,3	2,9	3,1
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash	3,0	2,8	2,5	2,9
Shaxsiy xizmatlar	4,2	4,2	3,9	4,2
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	0,9	1,2	2,1	3,3
Boshqa turdagi xizmatlar	2,8	3,4	3,4	2,5

2 Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



Samarqand viloyatida 2018–2021-yillar davomida jami xizmatlar tarkibida eng katta ulush savdo va ovqatlanish xizmatlarning hissasiga to'g'ri kelib, bu ko'rsatkich 2018-yilda 30,5%ni tashkil etgan bo'lsa, 2021-yilda ushbu ko'rsatkich 27,6%ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2,9%ga kamaygan. Shuningdek, 2018–2021-yillarda jami xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar (+4,0%), yashash va ovqatlanish xizmatlari (+2,0%), ta'lim xizmatlari (+1,0%), sog'liqni saqlash xizmatlari (+0,7%), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (+2,4%) salmog'i bo'yicha o'sish kuzatilgan. 2018–2021-yillar mobaynida viloyatda xizmat ko'rsatish sohasi tarkibida transport xizmatlari (logistika xizmatlarini qo'shgan holda) (–2,4%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (–1,7%), savdo xizmatlari (–2,9%), ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar (–0,4%), ijara va prokat xizmatlari (–0,5%), kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (–0,1%), boshqa turdagi xizmatlar (–0,3%) kamayish tendensiyasiga ega bo'lgan. Tahlil qilinayotgan yillarda shaxsiy xizmatlar hajmi o'zgarishsiz qolgan.

Samarqand viloyatining shaharlari va tumanlari bo'yicha kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmidagi ulushi 2020-yilda 70,7% ni, bu ko'rsatkich 2021-yilda 69,1%ni tashkil qilgan. Kichik korxona va mikrofirmalarning xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2020-yilda 2379,8 mlrd. so'm miqdorida baholanib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,1%ni tashkil qilgan. Ushbu ko'rsatkichning viloyatdagi jami xizmatlar ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 16,6% bo'lgan (3-jadval).

3-jadval: Samarqand viloyatida kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari³

Hududlar	2020-yil, mlrd. so'm	Ulushi, % da	2021-yil, mlrd. so'm	Ulushi, % da
Viloyat bo'yicha	9035,6	70,7	9889,7	69,1
shaharlar:				
1 Samarqand sh.	3832,2	62,8	4137,7	59,7
2 Kattaqo'rg'on sh.	293,4	84,2	318,0	82,8
tumanlar:				
3 Oqdaryo	286,3	82,6	315,5	82,8
4 Bulung'ur	305,3	82,2	316,8	77,2
5 Jomboy	388,6	75,9	441,6	77,9
6 Ishtixon	341,4	80,2	371,1	79,0
7 Kattaqo'rg'on	340,8	81,0	377,1	80,9
8 Qo'shrabot	231,6	85,0	252,1	84,3
9 Narpay	308,9	82,6	339,5	82,5
10 Payariq	298,6	78,1	331,9	77,6
11 Pstdarg'om	498,7	67,8	594,5	73,4
12 Paxtachi	211,6	80,7	221,8	77,0
13 Samarqand	589,9	82,1	662,9	83,2
14 Nurobod	208,2	76,4	224,7	75,2
15 Urgut	480,7	64,1	528,5	63,5
16 Toyloq	419,4	85,3	456,0	84,4

Viloyatning shahar va tumanlari kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha tahliliy ma'lumotlarga e'tiborni qaratsak, 2019-yilda o'tgan yilga nisbatan Samarqand shahri (115,4 %), Urgut (117,9 %) va Kattaqurg'on (113,6 %) tumanlarida yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2021-yilda aksariyat hududlarda o'tgan yilga nisbatan yuqoriroq sur'atda o'sgan. Samarqand shahrining viloyat bo'yicha umumiy xizmatlardagi ulushi 2019-yilda 40,3 %ni, 2021-yilda 42,0 %ni tashkil etgan (4-jadval).

3 Samarqand viloyati Statistika Bosh boshqarmasi ma'lumotlari.

4-jadval: Samarqand viloyatida hududlar bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari⁴

	Hududlar	2019-yil, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da	2021-yil, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
1	Samarqand	5150,7	115,4	40,3	7675,5	122,8	42,0
2	Kattaqo'rg'on	318,6	106,8	2,5	426,6	117,2	2,0
	tumanlar:						
3	Bulung'ur	344,0	102,2	2,7	496,1	118,3	3,0
4	Jomboy	576,5	106,5	4,5	801,8	110,3	4,0
5	Ishtixon	499,8	104,7	3,9	659,5	112,7	4,0
6	Kattaqurg'on	498,8	113,6	3,9	731,4	110,6	4,0
7	Narpay	452,6	104,6	3,5	614,9	114,0	3,0
8	Nurobod	272,1	105,4	2,1	370,1	117,4	2,0
9	Oqdaryo	418,4	100,5	3,3	641,5	116,2	4,0
10	Payariq	458,6	101,4	3,6	654,7	114,7	4,0
11	Pastdarg'om	902,3	105,6	7,1	1143,2	116,0	6,0
12	Paxtachi	263,9	107,9	2,1	411,6	114,3	2,0
13	Samarqand	862,9	101,8	6,7	1225,5	122,4	7,0
14	Tayloq	570,2	101,2	4,5	804,3	116,9	4,0
15	Urgut	924,9	117,9	7,2	1233,8	122,5	7,0
16	Qo'shrabot	272,5	106,7	2,1	368,5	114,5	2,0
	Jami	12786,8	112,4	100,0	18259,0	119,0	100,0

Respublikamiz iqtisodiyotining transformatsiyalashishi sharoitida xizmat ko'rsatish sohasida mavjud resurslardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlab beruvchi vositalardan biri – iqtisodiy samaradorlikni oshirish zahiralari va manbalarini aniqlash hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatining samaradorligi uning tashkiliy-boshqaruv va tashkiliy-iqtisodiy jarayonlarini oqilona tashkil etishiga bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Fikrimizcha, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda quyidagi yo'nalishlarni hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

- xizmatlar ko'rsatish sohasi tarmoqlarida tadbirkorlik faolligini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, xususan, ushbu yo'nalishda hududlarning rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, istiqbolli dasturlarni realizatsiya qilish;
- sohada moliya-bank, aholiga transport xizmatlari, qurilish, axborot, tibbiy va kommunal xizmatlar, shuningdek, qishloq hududlarida xizmatning an'anaviy turlari, agroturizmni rivojlantirishning istiqbolli rejasini ishlab chiqish. Shuningdek, transport, turizm va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirish;
- xizmat ko'rsatish sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini diversifikatsiyalash asosida ularning hajmini oshirish va sifatini yaxshilash, xizmatlar turlarini kengaytirish;
- ko'p miqdorda kapital mablag'larni talab qilmaydigan kichik xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha imtiyozli kreditlash tizimini takomillashtirish;

⁴ Samarqand viloyat Statistika boshqarmasi ma'lumotlari.



- qishloq joylarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish, xususan, agroturizm, qishloq aholisiga ko'rsatiladigan kommunal, maishiy, suvdan foydalanish, uy-joylarni ta'mirlash va qurish, veterinariya, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash va ularni qadoqlash kabi xizmatlar turlarini kengaytirishni taqozo etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiyotda innovatsion jarayon boshqaruv obyekti sifatida bir qator obyektiv qonuniyatlarga bo'ysunib, ularga quyidagilar kiradi: muddati, sarf-xarajatlar va natijalar bo'yicha innovatsiyalar rivojlanishining ehtimollik xususiyati, xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion jarayonlarni rejalashtirishning murakkabligi, muayyan ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilganligi hisoblanadi. Bu davrda xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion faoliyat ijtimoiy yo'nalishga ega, chunki aholi turmush darajasini oshirishga yordam beradigan ijtimoiy ehtiyojlar tegishli faoliyatni rivojlantirishni rag'batlantiradi hamda ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy sohalarini o'sishini ta'minlaydi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar ishlab chiqaruvchilarning ham, xizmatlar iste'molchilarining ham ma'lum ehtiyojlarini qondirishi hamda xizmat ko'rsatuvchi korxona maqsadlariga erishish, uning faoliyati samaradorligini oshirish, rentabellikni oshirish va bozordagi o'rnini mustahkamlashni ta'minlashi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alekseyeva P. O. Mexanizm sovershenstvovaniya upravleniya predpriyatiyami sferi uslug. / Diss. kand. ekon. nauk. – Sankt-Peterburg, 2015. 82 s.
2. Ismailov B. A. Xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). // Diss. PhD. – Nukus: QDU, 2022. 82-b.
3. Pisano G. P. You need an innovation strategy [Text] // Harvard business rev. – Boston, 2015. – Vol. 93, N 6. – P. 44–54.
4. Фостер Р. Созидательное разрушение: Почему компании, "построенные навечно", показывают не лучшие результаты и что надо сделать, чтобы поднять их эффективность [Текст] / Фостер Р., Каплан. – М.: "Альпина Бизнес Букс" 2005 г. – 378 с.
5. Мишин В. М. Управление инновациями: учебник [Текст] / В. М. Мишин, Н. П. Масленникова, В. П. Баранчев. – М.: Юрайт, 2014. – 720 с.
6. <https://stat.uz>
7. <https://samstat.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

